

YANGI O‘ZBEKISTON FUQAROLIK JAMIYATIDA JAMOATCHILIK NAZORATI: ISHONCH, MAS’ULIYAT VA IJTIMOIIY HAMKORLIK FALSAFASI

Fayziyeva Farog’at

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Negmatova DiloVar

SamDU “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasi o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va uning tarkibiy qismi sifatida jamoatchilik nazorati instituti falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy diqqat markazida – jamoatchilik nazoratining nafaqat nazorat vositasi, balki ijtimoiy ishonchni mustahkamlovchi, fuqarolik mas’uliyatini oshiruvchi va davlat hamda jamiyat o‘rtasida muloqot maydonini yaratuvchi mexanizm sifatidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, demokratik qadriyatlar, davlat boshqaruvi, fuqarolik ongi, mas’uliyat falsafasi.

PUBLIC OVERSIGHT IN THE CIVIL SOCIETY OF NEW UZBEKISTAN: THE PHILOSOPHY OF TRUST, RESPONSIBILITY, AND SOCIAL PARTNERSHIP

Abstract. This article provides a philosophical analysis of the formation of civil society in the context of New Uzbekistan and the institution of public control as its integral component. The main focus of the research is on examining the role of public control not only as a means of oversight, but also as a mechanism that strengthens social trust, enhances civic responsibility, and creates a platform for dialogue between the state and society.

Key words: New Uzbekistan, civil society, public control, democratic values, public administration, civic consciousness, philosophy of responsibility.

ОБЩЕСТВЕННЫЙ КОНТРОЛЬ В ГРАЖДАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: ФИЛОСОФИЯ ДОВЕРИЯ, ОТВЕТСТВЕННОСТИ И СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА

Аннотация. В данной статье с философской точки зрения анализируется

формирование гражданского общества в условиях Нового Узбекистана и институт общественного контроля как его составная часть. Основное внимание исследования сосредоточено на роли общественного контроля не только как инструмента надзора, но и как механизма, укрепляющего общественное доверие, повышающего гражданскую ответственность и создающего пространство для диалога между государством и обществом.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, гражданское общество, общественный контроль, демократические ценности, государственное управление, гражданское сознание, философия ответственности.

O‘zbekiston fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali jamiyat va davlat ishlarini boshqarishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat bo‘lgan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risi”dagi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O‘zbekiston ko‘plab sohalarda, shu jumladan, inson huquqlarini himoyalash sohasida ham o‘z taraqqiyotining “yangi davri”ga kirib bormoqda. O‘zbekistonning BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga saylanishi, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar asosida BMT Bosh Assambleyasi va BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi tomonidan tegishli rezolyutsiyalarining qabul qilinishi – bularning barchasi O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldida turgan muammolarni hal etishga bo‘lgan yondashuvi xalqaro hamjamiyat va ko‘plab davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilish masalasi eng ustuvor yo‘nalishga aylandi. Eng asosiysi, bolalar mehnati va majburiy mehnat bartaraf etildi. Xalqaro va milliy fuqarolik institutlari bilan paxta yig‘im-terimi mavsumida bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanmaslik yuzasidan Milliy monitoring tizimi yaratildi. Buning natijalarini jahon hamjamiyati yakdil e’tirof etmoqda [1;45]. O‘z navbatida, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida qabul qilingan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan va yaqindan davlatimiz rahbari tasdiqlagan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ushbu sohalardagi ustuvor maqsad va vazifalar belgilab berildi [2].

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim jihati shundan iboratki, unda belgilangan islohotlar o‘zining mazmun-mohiyati bilan inson huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmini taraqqiyotning yangi bosqichi talablaridan

kelib chiqib takomillashtirishga qaratilgan. Unda ayollar, bolalar, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, migrantlar, kam ta‘minlanganlar va aholining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari manfaatlari himoyasiga salmoqli o‘rin ajratilgan. Bu o‘rinda, avvalambor,

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 1-maqsvadi “Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish” [2], deb nomlanganiga e’tibor qaratish zarur. Ushbu maqsadga erishish uchun, jumladan, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta‘minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish, mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish kabi vazifalar nazarda tutilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasining 4-maqsvadi “Davlat boshqaruvi organlari faoliyati”ni “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilish” deb nomlangan [3]. Unda, xususan, davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelishini bartaraf etish, mazkur jarayonga keng jamoatchilikni jalb qilish; vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo‘nalishlarini “Davlat – xalq xizmatchisi” tamoyili asosida fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish vazifalari belgilangan. Eng asosiysi, taraqqiyot strategiyasining “Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” deb nomlangan 12-maqsvadida bu boradagi bevosita muhim bir qator vazifalar nazarda tutilgan [3].

Demokratik jamiyatda jamoat birlashmalari jamiyatni boshqarishning ijtimoiy vositalaridan biri bo‘libgina qolmay, mutlaq zaruriy ehtiyoj hamdir. De Tokvilning fikriga ko‘ra, “Dunyodagi mamlakatlar orasida eng demokratik mamlakat fuqarolari maqsadga yetishishda o‘zaro maslahatlashish asosida ish ko‘radigan va mazkur jamoaviy harakat usulini boshqalardan ko‘ra ko‘proq qo‘llaydigan mamlakatdir” [4;460].

Huquqni himoya qilish bo‘yicha tuzilgan jamoat tashkilotlari barcha mamlakatlarni tezkor, samarali va kam sarf bilan inson huquqlari muammosini hal qilishga ko‘maklashadigan va hokimiyat organlari suiiste’molliklaridan himoya qiladigan tashkilotlarga bo‘lgan ehtiyojni ifodalaydi. Davlat organi o‘zining nazorat funksiyalarini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati subyektlaridan kelib tushadigan

axborotdan foydalanadi, jamoatchilik nazorati esa o‘zining funksiyalarini ko‘pincha tegishli davlat organlariga murojaat qilish orqali amalga oshiradi. Ana shunday o‘zaro bog‘liqlik mamlakatimizda “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta’minlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida hamda mazkur qonun loyihasini hayotga tatbiq qilish bo‘yicha Buxoro va Samarqand viloyatlarida o‘tkazilgan eksperiment davomida o‘zining yorqin ifodasini topdi [5;184].

Davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishda mahalla instituti quyidagi ijtimoiy institutlar bilan yaqindan hamkorlik qilishi uchun faoliyat samaradorligini oshiradi:

- mamlakatdagi turli ijtimoiy-madaniy hamda kasbiy guruhlarining manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy partiyalar. Fuqarolarning siyosiy ehtiyoj va saylovchilar saylov jarayonida u yoki bu partiyaga ovoz berar ekan, aslida ijroiya hokimiyati organlari faoliyatiga oldindan shakllangan nuqtayi nazari asosida xulosa qiladilar. Shu boisdan ham partiyalar jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda nufuzli hamkorlar bo‘la oladilar;

- mehnatkashlarning manfaatlarini taqdim etish va himoya qilish maqsadida tuzilgan kasaba uyushmalari;

- notijorat xarakterga ega bo‘lgan turli jamoat tashkilotlari va uyushmalar;

- o‘ziga xos tarzda faoliyat yuritadigan jamoat-davlat tuzilmalari. Bunday tuzilmalar qatoriga turli vazirliklar va idoralar qoshida tashkil etilgan jamoatchilik kengashlari va uyushmalari kiradi;

Xulosa qilib aytganda, davlat faoliyati ustidan xalq nazoratini amalga oshirilishida har bir nodavlat tashkilotning turlicha usulda yondashuvi, ularning nazorati bir necha nodavlat tashkilot bilan birga emas, balki individual tarzda bo‘layotgani bugungi kun talablariga javob bermaydi. Davlat tuzilmalari faoliyatini kollegal nazorat qilish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Chunki, mahalla eng demokratik boshqaruv usuli va tizimi ekanligini inobatga olib, uning o‘rni hamda ta’siri davlat idoralariga nisbatan kuchayib va kengayib borishi, mantiqiy tendensiyadir.

Hayotimizda mahallaning ahamiyati tobora ortishi zamonaviy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu holat jamoatchilik nazoratining ta’sirini oshirish sababli mahalla tizimini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish bugungi kun talabi ekanligini tasdiqlaydi. Shu boisdan ham mazkur holatni ilmiy jihatdan tadqiq etish jarayonini davom ettirish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Edmonds E. V. Globalization and the persistence of forced labor and child labor //Handbook on Globalisation and Labour Standards. – Edward Elgar Publishing, 2022. – С. 36-63.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони, 28.01.2022 йилдаги. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони, 28.01.2022 йилдаги. <https://lex.uz/ru/docs/5841063>.
4. Токвиль А. Демократия в Америке / предисл. Гарольда Дж. Ласки. — М.: "Весь Мир", 2000. — 460 с.
5. Мамасиддиқов М.М., Отажонов А.А. ва бошқ. Мамлакатимизда давлат идоралари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш механизмларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш -Тошкент. “Lesson press”. 2020. –184 б.